–operatsion: mediaidrokiga munosabati, hodisaning paydo bo‘lish sabablari, shartlari va mohiyatini tushuntirish qobiliyati, mediamadaniyat sohasidagi rivojlanish darajasini aniqlash, maqbul usullarni tanlash qobiliyati;

–ijodiy (kreativ): moslashuvchanlik, harakatchanlik, assotsiativlik, o‘ziga xoslik, tafakkurning antitereotipikligi, tasavvurning rivojlanishi, xayolot va boshqalardan iborat kasbiy tayyorgarlik darajalariga ega ta’lim tizimini yaratishdir.

Ta’lim tizimida mediata’limning integratsiyalashuvini ta’minlashga qaratilgan sohadagi har bir muammoning yechimi ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining mediakompetentlik darajasi bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari, o‘quvchi va talabalarning mediaolamdagi harakatini nazorat qilish, “raqamli kelajak” sari to‘g‘ri yondashuvni ta’minlash zamonaviy ta’limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Искаков Бейбит Абаканович. “Развитие медиакомпетентности учителей в условиях ресурсного центра”. Дисс., Барнаул, 2013, с. 3–9.

(2). Маркулис Светлана Юрьевна. “Модель повышения информационно-коммуникационной компетентности педагогических работников в условиях ресурсного центра”. Дисс., М., 2010, с. 3–14.

(3). Кутькина Олеся Петровна. “Педагогические условия формирования медиакомпетентности будущих библиотечно-информационных специалистов”. Дисс., Барнаул, 2006, с. 8–10.

(4). Elena Frolova. Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi moliya universiteti. “Raqamlashtirishning salbiy oqibatlarini kamaytirishda Mediata’limning roli”. Jurnal: “Медиаобразование”, 2025, 21(1), с. 45–54

(5). А.В.Федоров. Словарь терминов по медиаобразованию, медиапедагогике, медиаграмотности, медиакомпетентности. М., МОО “Информация для всех”, 2014, с. 4–17.

(6). Е.Н.Шутенко, А.И.Шутенко. “Особенности активизации личностного потенциала студентов в условиях цифровизации вузовского обучения”. Международный электронный научный журнал “Перспективы науки и образования”. 2022, 60(6), с. 32–47.

(7). А.В.Федоров. Словарь терминов по медиаобразованию, медиапедагогике, медиаграмотности, медиакомпетентности. М., 2014, с. 25.

Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li (UrDPI “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi professori v.b., p.f.b.f.d. (PhD) Xorazm viloyati, Urganch shahri; sh.xudayberganov.urdu@mail.ru; ORCID-0009-0007-9006-8998),

Sultonboyeva Maftuna Mansurbek qizi (UrDPI Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 1-kurs magistranti (Xorazm viloyati, Urganch shahri; maftunamansurbekovna04@gmail.com)

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARIDA KOGNITIV QIZIQISHNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarida kognitiv qiziqishni rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Kognitiv qiziqish tushunchasining pedagogik-psixologik mazmuni ochib berilib, maktabgacha yosh davrining o‘ziga xos xususiyatlari asosida bolalarda bilishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirishning muhim omillari yoritilgan. Shuningdek, rivojlantiruvchi ta’lim muhiti, o‘yin, tadqiqot faoliyati va muammoli vaziyatlar orqali kognitiv qiziqishni rivojlantirishning samarali metod va vositalari ko‘rsatib berilgan. Mazkur maqola maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari, pedagogika yo‘nalishi talabalari hamda soha mutaxassislari uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *kognitiv qiziqish, maktabgacha ta’lim, bilish faoliyati, intellektual rivojlanish, ta’lim muhiti, o‘yin faoliyati, tarbiyachi, pedagogik metodlar.*

РАЗВИТИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА У ВОСПИТАННИКОВ ПОДГОТОВИТЕЛЬНЫХ ГРУПП ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Аннотация. *В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются вопросы развития познавательного интереса у воспитанников дошкольных образовательных организаций. Раскрывается педагогико-психологическое содержание понятия познавательного интереса, а также освещаются важные факторы формирования потребности в познании у детей с учётом возрастных особенностей дошкольного периода. Кроме того, представлены эффективные методы и средства развития познавательного интереса посредством развивающей образовательной среды, игровой, исследовательской деятельности и проблемных ситуаций.*

Статья имеет практическую значимость для воспитателей дошкольных образовательных организаций, студентов педагогических направлений и специалистов в области дошкольного образования.

Ключевые слова: *когнитивный интерес, дошкольное образование, познавательная деятельность, интеллектуальное развитие, образовательная среда, игровая деятельность, воспитатель, педагогические методы.*

DEVELOPMENT OF COGNITIVE INTEREST IN PRESCHOOL CHILDREN OF PREPARATORY GROUPS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation. *This article analyzes the issues of developing cognitive interest in preschool children from scientific-theoretical and practical perspectives. The pedagogical and psychological essence of the concept of cognitive interest is revealed, and key factors in forming children's need for learning are highlighted based on the specific characteristics of preschool age. In addition, effective methods and tools for developing cognitive interest through a developmental educational environment, play, research activities, and problem-based situations are presented. This article is of practical significance for preschool educators, students of pedagogical fields, and specialists in the sphere of preschool education.*

Keywords: *cognitive interest, preschool education, cognitive activity, intellectual development, educational environment, play activity, educator, pedagogical methods.*

Kirish. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim bo'g'ini sifatida qaralmoqda. Aynan shu bosqichda bolalarning bilishga bo'lgan ehtiyoji, qiziqishi va intellektual faolligi shakllanadi. Kognitiv qiziqish bolaning atrof-muhitni anglashga bo'lgan ichki ehtiyoji bo'lib, u keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qish va shaxs sifatida kamol topishning muhim omilidir. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv qiziqishni rivojlantirish pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Jumladan, kognitiv qiziqish tushunchasi, uning maktabgacha yosh davridagi ahamiyati, rivojlanish omillari, pedagogik shart-sharoitlar, samarali metod va vositalar, shuningdek, tarbiyachi faoliyatining o'rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritiladi.

Kognitiv qiziqish (lotincha *cognitio* – bilish) shaxsning bilishga, yangi ma'lumotlarni egallashga, hodisa va jarayonlarning mohiyatini tushunishga bo'lgan barqaror ichki intilish hisoblanadi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda kognitiv qiziqish bilim olish jarayonini faollashtiruvchi asosiy motivlardan biri sifatida talqin qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. F.R.Matkarimova, O.R.Matkarimovaning "Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kognitiv faoliyatni rivojlantirish orqali chet tili o'rgatishning zamonaviy metodlari" nomli maqolasida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda chet tilini o'rgatishda kognitiv faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy metodlari tahlil qilingan [2].

Sh.S.Muhamedovaning "Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiqi qilinishi" nomli maqolasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning kognitiv sohasining olimlar tomonidan tadqiqining nazariy tahlillari bayon etilgan [3].


N.A.Isroilova, S.O.Nurmuhammadovaning "Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv faoliyatni rivojlantirishda zamonaviy ta'limning ahamiyati" nomli maqolasida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida kognitiv faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy usullari va ulardan foydalanishning o'ziga xos tomonlar haqida fikr mulohazalar bildirilgan [4].

M.Q.Qodirovaning "Maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirish" nomli maqolasida maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirishda qiziqishlarning o'rni, turli munosabat turlaridan foydalanish hamda zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari amaliyotida turli loyihalardan foydalanish ahamiyati yoritilgan [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha yoshda kognitiv qiziqish turlicha xususiyatlar bilan namoyon bo'ladi. Ya'ni, bola har xil savollar bera boshlaydi, tajribalar o'tkazishga qiziqishi yanada oshadi, o'yin jarayonida yangi bilimlarni o'zlashtiradi va atrofdagi predmet va hodisalarga faol munosabatda bo'ladi.

Bolaning kognitiv qiziqishi faqatgina ta'lim tashkilotida emas, balki oilada ham rivojlanadi. Ota-onalarning bolaning savollariga e'tiborli bo'lishi, birgalikda kitob o'qishi, o'yinlar o'ynashi, suhbatlashish va kuzatishlar olib borishi muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolaning hayotida o'yin asosiy faoliyat turidir. Didaktik, sujetli-rolli va ijodiy o'yinlar orqali bolaning tafakkuri, mantiqiy fikrlashi, muammo yechish ko'nikmalari rivojlanadi.


Maktabgacha yosh bolaning ayniqsa kognitiv rivojlanishida eng muhim davr hisoblanadi. Bu davrda:



Maktabgacha ta’lim tashkilotida ilm-fan va tabiat markazida oddiy va murakkab tajribalar o‘tkaziladi. Oddiy tajribalar (suv, qum, havo bilan) bolalarda sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunishga, tanqidiy va mantiqiy fikrlashlariga yordam beradi. Tajriba jarayonida bola faol ishtirokchi bo‘lib, mustaqil xulosa chiqarishga o‘rganadi.

Shuningdek, muammoli savollar ham bolaning fikrlash faolligini oshiradi. Bu o‘rinda tarbiyachi bolani tayyor javob bilan cheklamasdan, uni fikrlashga undashi lozim. Chunki tarbiyachi bolaning bilishga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab-quvvatlovchi asosiy shaxsdir. Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi, pedagogik mahorati va ijodkorligi kognitiv qiziqish rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tarbiyachi:



Xulosa. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarida kognitiv qiziqishni rivojlantirish ularning har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib shakllanishida muhim pedagogik omil hisoblanadi. Kognitiv qiziqish bolaning bilishga bo‘lgan ichki ehtiyoji sifatida namoyon bo‘lib, aynan maktabgacha yosh davrida mazkur ehtiyojni to‘g‘ri yo‘naltirish va qo‘llab-quvvatlash keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o‘qish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bolalarda kognitiv qiziqishning shakllanishi va rivojlanishi rivojlantiruvchi ta’lim muhiti, mazmunan boy o‘yin faoliyati, tadqiqot va tajriba ishlari hamda muammoli vaziyatlar bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu omillar bolalarda mustaqil fikrlash, sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunish, kuzatish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tarbiyachining kasbiy mahorati, pedagogik yondashuvi va ijodkorligi kognitiv qiziqishni rivojlantirish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tarbiyachi tomonidan bolalarning individual xususiyatlari va qiziqishlari hisobga olingan holda tashkil etilgan mashg‘ulotlar ularning bilish faolligini oshiradi, o‘z-o‘zini namoyon etishiga imkon yaratadi hamda ijobiy o‘quv motivatsiyasini shakllantiradi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kognitiv qiziqishni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizimli va maqsadga muvofiq pedagogik faoliyatni tashkil etish, zamonaviy metod

va texnologiyalardan samarali foydalanish hamda oila va ta'lim muassasasi hamkorligini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa bolalarning intellektual salohiyatini to'liq namoyon etishiga, bilim olishga bo'lgan barqaror qiziqishning shakllanishiga va kelgusida ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Sh.M.Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". Toshkent, "Ўзбекистон", 2023.

(2). F.R.Matkarimova, O.R.Matkarimova. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kognitiv faoliyatni rivojlantirish orqali chet tili o'rgatishning zamonaviy metodlari. Conference on the role and importance of science in the mo-dern world, 2025.

(3). Sh.S.Muhamedova. Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiqi qilinishi. Central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis), 2022.

(4). N.A.Isroilova, S.O.Nurmuhammadova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv faoliyatni rivojlantirishda zamonaviy ta'limning ahamiyati. "Вестник магистратуры", 2024.

(5). M.Q.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirish. Proceedings of international scjentific-practical conference on cognitive research in education. 2021.

Atadjanova Dinora Ulug'bekovna (UrDPI "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi professori v.b., p.f.b.f.d. (PhD)., dotsent; dinoraatajanova90@gmail.com),

Matnazarova Charos G'afur qizi (UrDPI Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim) 1-bosqich magistranti; matnazarovacharos@gmail.com)

BOLALAR ADABIYOTI VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bolalar adabiyoti vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tarbiyani rivojlantirish masalalari yoritilgan. Bolalar adabiyotining tarbiyaviy ahamiyati, ertak, she'r, hikoya va rivoyatlarning bolalar ongiga ijobiy ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar adabiyotidan samarali foydalanish orqali mehr-oqibat, halollik, do'stlik, kattalarga hurmat kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirish yo'llari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot davomida bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, axloqiy tarbiyani rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *bolalar adabiyoti, axloqiy tarbiya, maktabgacha yoshdagi bolalar, ma'naviy tarbiya, ertaklar, tarbiyaviy jarayon, axloqiy fazilatlar, pedagogik yondashuv.*

РАЗВИТИЕ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПОСРЕДСТВОМ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы развития нравственного воспитания у детей дошкольного возраста посредством детской литературы. Анализируется воспитательное значение детской литературы, а также положительное влияние сказок, стихотворений, рассказов и легенд на формирование нравственных качеств детей. В статье раскрываются эффективные пути использования детской литературы в дошкольных образовательных учреждениях для формирования таких нравственных качеств, как доброта, честность, дружба и уважение к старшим. Также определены педагогические возможности развития нравственного воспитания с учетом возрастных и психологических особенностей детей дошкольного возраста.*

Ключевые слова: *детская литература, нравственное воспитание, дети дошкольного возраста, нравственное развитие, сказки, образовательный процесс, нравственные ценности, педагогический подход.*

DEVELOPING MORAL EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH CHILDREN'S LITERATURE

Annotation. *This article examines the development of moral education in preschool children through children's literature. The educational value of children's literature is analyzed, with particular attention given to the positive influence of fairy tales, poems, stories, and legends on children's moral development. The study highlights effective ways of using children's literature in preschool educational institutions to foster such moral qualities as kindness, honesty, friendship, and respect for elders. Furthermore, the pedagogical opportunities for developing moral education are revealed, taking into account the age and psychological characteristics of preschool children.*

Keywords: *children's literature, moral education, preschool children, moral development, fairy tales, educational process, moral values, pedagogical approach.*